O'ZBEKISTON FRANCHAYZING BRENDLARINING XALQARO BOZORLARDA IMIJINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY BRENDUKLAR YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI	1140
Xodjayev Anvar Rasulovich	



UDK: 339.944.2

O'ZBEKISTON FRANCHAYZING BRENDLARINING XALQARO BOZORLARDA IMIJINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY BRENDBUKLAR YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI

Xodjayev Anvar Rasulovich

Buxoro davlat universiteti,
iqtisodiyot kafedrası dotsenti, i.f.f.d (PhD)
E-mail: anikxodja1989@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8662-759X

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston franchayzing brendlarining xalqaro bozorlardagi imijini mustahkamlashda zamonaviy brendbuklarni yaratishning nazariy asoslari va amaliy yechimlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda global marketing konsepsiyalari, brend identifikatsiyasi, vizual kommunikatsiya hamda franchayzing tizimidagi strategik boshqaruv yondashuvlari asosida brendbuklarning ahamiyati asoslab berilgan. Xalqaro brendlar tajribasi hamda O'zbekiston franchayzing subyektlarining amaldagi faoliyati kontent-tahlil, komparativ tahlil, SWOT-tahlil va ekspert intervyulari asosida o'rganilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy franchayzing kompaniyalarida professional darajada ishlab chiqilgan brendbuklar amaliyotini yanada kengaytirish brend imijini izchil shakllantirish va xorijiy bozorlarda samarali kommunikatsiyani ta'minlash uchun muhim imkoniyat hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy raqamli platformalarga moslashtirilgan, modul tamoyiliga asoslangan brendbuklarni ishlab chiqish kompaniyalarning vizual identifikatsiyasi, marketing kommunikatsiyasi hamda iste'molchilar bilan emotsional aloqalar samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalari franchayzing subyektlari uchun brendbuklardan strategik marketing vositasi sifatida samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kali so'zlar: franchayzing, brendbuk, brend identifikatsiyasi, brend imiji, marketing kommunikatsiyalari, vizual identifikatsiya, xalqaro marketing, franchayzing strategiyasi, brend menejmenti, raqamli marketing, globalizatsiya, iste'molchi xulq-atvori, korporativ dizayn, strategik kommunikatsiya, brend qadriyatlari.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the theoretical foundations and practical solutions for developing modern brandbooks aimed at strengthening the image of Uzbek franchising brands in international markets. The study substantiates the importance of brandbooks based on global marketing concepts, brand identity, visual communication, and strategic management approaches within franchising systems. The experience of international brands and the current practices of Uzbek franchising entities were examined using content analysis, comparative analysis, SWOT analysis, and expert interviews.

The research findings indicate that expanding the implementation of professionally developed brandbooks in national franchising companies represents an important opportunity to ensure consistent brand image formation and effective communication in foreign markets. Furthermore, the study demonstrates that developing modular brandbooks adapted to modern digital platforms can significantly enhance visual identity, marketing communications, and emotional engagement with consumers.

The results of the study provide scientifically grounded and practically relevant recommendations for franchising entities on the effective use of brandbooks as a strategic marketing tool.

Key words: franchising, brandbook, brand identity, brand image, marketing communications, visual identity, international marketing, franchising strategy, brand management, digital marketing, globalization, consumer behavior, corporate design, strategic communication, brand values.



Аннотация. В данной статье научно обоснованы теоретические основы и практические решения по разработке современных брендбуков, направленных на укрепление имиджа узбекских франчайзинговых брендов на международных рынках. В исследовании раскрыта значимость брендбуков на основе современных концепций маркетинга, бренд-идентичности, визуальных коммуникаций и стратегического управления во франчайзинговых системах. Международный опыт и современная практика франчайзинговых компаний Узбекистана изучены с применением контент-анализа, сравнительного анализа, SWOT-анализа и экспертных интервью.

Результаты исследования показали, что расширение практики внедрения профессионально разработанных брендбуков в национальных франчайзинговых компаниях является важным фактором обеспечения последовательного формирования имиджа бренда и эффективной коммуникации на зарубежных рынках. Также доказано, что разработка модульных брендбуков, адаптированных к современным цифровым платформам, способствует повышению эффективности визуальной идентификации, маркетинговых коммуникаций и эмоциональной вовлечённости потребителей.

Полученные результаты имеют научно-практическое значение и позволяют сформулировать рекомендации по эффективному использованию брендбуков как стратегического инструмента маркетинга во франчайзинговой деятельности.

Ключевые слова: франчайзинг, брендбук, бренд-идентичность, имидж бренда, маркетинговые коммуникации, визуальная идентификация, международный маркетинг, стратегия франчайзинга, управление брендом, цифровой маркетинг, глокализация, поведение потребителей, корпоративный дизайн, стратегические коммуникации, ценности бренда.

KIRISH

Jahon miqyosida marketing va biznes strategiyalarining globallashuvi sharoitida milliy brendlarning xorijiy bozorlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ularning imiji, brend identifikatsiyasi va iste'molchi ongida shakllangan qadri bilan bevosita bog'liq bo'lgan muhim strategik omillar qatoriga kiradi. Ayniqsa, franchayzing modeli asosida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar uchun mazkur jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki franchayzer o'z brend identitetini nafaqat ichki bozorda, balki boshqa mamlakatlardagi franchayzilar tarmog'i orqali ham kengaytiradi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston franchayzing brendlarining xalqaro bozorlardagi ishtirokini kengaytirish va ular haqidagi ijobiy hamda barqaror tasavvurlarni shakllantirish zamonaviy marketing boshqaruvining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayni paytda jahon amaliyotida brendning ichki va tashqi qiyofasini tizimli ravishda ifodalovchi "brandbuk"lar, ya'ni brend identifikatsiyasining asosiy elementlarini belgilovchi strategik hujjatlar samarali kommunikatsiya vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda.

O'zbekistonda franchayzing bozorining shakllanish jarayoni 2000-yillar boshlarida boshlangan bo'lib, so'nggi yillarda ushbu sohada barqaror rivojlanish tendensiyalari kuzatilmoqda. Xususan, xizmatlar sohasi, umumiy ovqatlanish, chakana savdo, ta'lim, tibbiyot va boshqa istiqbolli yo'nalishlarda franchayzing asosida faoliyat yuritayotgan mahalliy brendlar soni izchil ortib bormoqda. Bu esa milliy brendlarning xalqaro bozorlarga chiqish salohiyatini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar shakllanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun brendning mazmuni, qadriyatlar, dizayn konsepsiyasi va kommunikatsion pozitsiyasini yagona tizim asosida ifodalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifani samarali amalga oshirishda brendbuklar muhim strategik vosita sifatida xizmat qiladi. Brendbuklar orqali mahsulot va xizmatlar haqida yagona standartlarga asoslangan, tizimli va professional axborotni taqdim etish franchayzing kompaniyalari uchun nafaqat iste'molchilar bilan samarali kommunikatsiyani yo'lga qo'yish, balki xalqaro hamkorlar va investorlar ishonchini mustahkamlash imkonini ham yaratadi.

Brendbuk (brandbook) – bu kompaniyaning vizual identifikatsiyasi, brend qadriyatlar, kommunikatsiya uslublari, dizayn elementlari, logotipdan foydalanish qoidalari, ranglar palitrasi, shriftlar, grafik elementlar, brend ovozi (tone of voice), raqamli platformalardagi faoliyat tamoyillari va boshqa muhim brend komponentlarini o'z ichiga olgan kompleks strategik hujjat hisoblanadi. Ushbu hujjat kompaniya ichida ham, tashqi muhit bilan o'zaro aloqalarda ham brend yaxlitligini ta'minlash, uning izchil rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va barcha manfaatdor tomonlar tomonidan yagona tarzda qabul qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi. Xalqaro kompaniyalar tajribasi shuni ko'rsatadiki, professional darajada ishlab chiqilgan brendbuklar global marketing faoliyatini standartlashtirish, brendning raqobatbardoshligini oshirish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ilg'or tajribalarni O'zbekiston franchayzing kompaniyalari faoliyatiga joriy etish milliy brendlarning xalqaro maydondagi pozitsiyasini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi [1].

Hozirgi davrda innovatsion marketing konsepsiyalari, raqamli transformatsiya jarayonlari va iste'molchilarning brendga nisbatan emotsional munosabati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy iste'molchilar brendni nafaqat mahsulot yoki xizmat sifati, balki uning qadriyatlar, missiyasi, ijtimoiy mas'uliyati,



ekologik yondashuvi va kommunikatsiya madaniyati orqali ham baholaydilar. Shu sababli kompaniyalar o'z brend hikoyasini (storytelling), ijtimoiy mas'uliyat strategiyasini (CSR), dizayn konsepsiyasini va kommunikatsiya siyosatini aniq va tizimli ravishda shakllantirishi zarur. Mazkur jarayonda brendbuk ushbu elementlarni yagona tizim asosida boshqarish va samarali integratsiya qilish imkonini beruvchi muhim strategik vosita hisoblanadi. Shu jihatdan, brendbuklar nafaqat marketing va dizayn mutaxassislari, balki kompaniya boshqaruvi, investitsiya jarayonlari, mijozlar bilan ishlash va franchayzing tarmog'ini rivojlantirishning barcha bosqichlari uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy marketing nazariyasi va amaliyotida brendning ma'naviy va vizual identiteti, iste'molchilar bilan kommunikatsiyasi hamda brend mazmuni va qadriyatlarini ifodalovchi vositalarning ahamiyati yuqori baholanadi. Ushbu elementlarni tizimli ravishda ifodalovchi asosiy vositalardan biri – brendbuk hisoblanadi. Brendbuk kompaniyaning ichki va tashqi kommunikatsiyalarini muvofiqlashtiruvchi, brend imijini mustahkamlovchi hamda uning strategik yo'nalishlarini belgilovchi kompleks konseptual hujjat sifatida global marketing amaliyotida keng qo'llaniladi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy adabiyotlarda brend imiji, brend identifikatsiyasi, franchayzing kommunikatsiyasi va brendbuklarning strategik ahamiyati alohida tadqiq etilgan [2].

Mashhur marketing olimlari F. Kotler va K. Keller o'zlarining "Marketing Management" asarida brendni iste'molchining ongida mahsulot yoki kompaniyaga nisbatan shakllangan barqaror tasavvurlar va assotsiatsiyalar majmui sifatida izohlaydi. Ularning ta'kidlashicha, brend nafaqat nom yoki logotipdan iborat, balki iste'molchining tajribasi, hissiy munosabati va kompaniya bilan o'zaro aloqalari natijasida shakllanadigan murakkab tizimdir. Mualliflar brend identitetini brend strategiyasining asosiy elementi sifatida baholab, uni aniq va tizimli shaklda hujjatlashtirish zarurligini ta'kidlaydilar. Ushbu vazifani amalga oshirishda brendbuk muhim strategik vosita sifatida xizmat qiladi.

Brend imiji tushunchasi iste'molchi ongida shakllanadigan tasavvurlar va munosabatlar tizimini anglatadi. J. Kapferer (2008) "The New Strategic Brand Management" asarida brend imijining shakllanishida vizual identifikatsiya elementlari, brend qadriyatlari, kommunikatsiya uslubi va kompaniya madaniyati hal qiluvchi rol o'ynashini asoslab bergan. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan "Brend identiteti prizmasi" modeli brendning oltita asosiy tarkibiy elementini – fizik atributlar, brend shaxsiyati, madaniyat, munosabatlar, aks ettirish va o'zini identifikatsiya qilish kabi komponentlarni o'z ichiga oladi. Ushbu elementlarning izchil va yagona tizimda ifodalanishi brendbuk orqali ta'minlanadi.

D. Aaker brend kapitali (brand equity) konsepsiyasini rivojlantirib, uning asosiy tarkibiy qismlariga brend xabardorligi, brend assotsiatsiyalari, qabul qilingan sifat darajasi va iste'molchi sadoqatini kiritadi. Olimning fikricha, mazkur elementlarning samarali shakllanishi brendning yagona kommunikatsion va vizual standartlari mavjudligiga bog'liq. Shu sababli, kompaniyalar o'z brendlarini professional darajada boshqarish uchun vizual va kommunikatsion standartlarni o'z ichiga olgan strategik hujjatlarga, xususan, brendbuklarga ega bo'lishi zarur.

Brend identitetini yaratish va boshqarish masalalari L. Wheeler (2017) tomonidan ham keng o'rganilgan. Uning "Designing Brand Identity" asarida brendbuk zamonaviy brend boshqaruvining ajralmas elementi sifatida baholanadi. Muallif brendbukni nafaqat dizayn vositasi, balki strategik boshqaruv, marketing kommunikatsiyasi va investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiluvchi muhim hujjat sifatida talqin qiladi. Wheelerning ta'kidlashicha, brendbuk tarkibiga brend qadriyatlari, vizual identifikatsiya elementlari, kommunikatsiya uslubi, auditoriya bilan o'zaro aloqalar tamoyillari va raqamli platformalarda foydalanish standartlari kiritilishi lozim.

Xalqaro franchayzing kompaniyalari amaliyoti ham brendbuklarning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Xususan, McDonald's, KFC, IKEA va Nike kabi global kompaniyalar brendbuklardan franchayzing tarmog'ida yagona standartlarni ta'minlash vositasi sifatida foydalanadi. Ushbu yondashuv brendning turli mamlakatlarda bir xil sifat va imij asosida namoyon bo'lishini ta'minlaydi hamda iste'molchilar ishonchini mustahkamlaydi [3].

Brendlarni xalqaro bozorlarga moslashtirish jarayonida brendbuklarning lokalizatsiya qilinishi ham muhim ahamiyatga ega. Boyko va Pilipenko (2020) o'z tadqiqotlarida transmilliy kompaniyalar brendbuklarini mahalliy madaniy xususiyatlar, iste'molchi xulq-atvori va kommunikatsiya an'analarini hisobga olgan holda moslashtirishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv marketing nazariyasida "glokalizatsiya" tamoyili sifatida izohlanadi. Kotler va Dubois (2010) glokalizatsiyani global strategiyalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali amalga oshiriladigan samarali marketing yondashuvi sifatida tavsiflaydi.

Brendbuklarning dizayn jihatlari ham ilmiy adabiyotlarda alohida o'rganilgan. Millman (2011) "Brand Bible" asarida professional brend identitetini shakllantirishda vizual elementlarning uyg'unligi va izchilligi muhim ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, logotip, ranglar palitrasi, shriftlar va grafik elementlar brend qadriyatlariga mos holda ishlab chiqilishi va yagona konsepsiyaga asoslanishi lozim.



Raqamli marketing texnologiyalarining rivojlanishi brendbuklarning yangi, interaktiv formatlarini yaratish zaruratini yuzaga keltirdi. Kasperskaya (2022) raqamli brendbuklar kompaniyalarning turli raqamli platformalarda yagona kommunikatsiya uslubini ta'minlashda samarali vosita ekanligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv franchayzing tizimi uchun ayniqsa muhim bo'lib, turli hududlardagi franchayzilar faoliyatini yagona standartlar asosida tashkil etish imkonini beradi.

Chow va Chan (2018) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari ham brendbuklarning franchayzing tizimi samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, brendbuk mavjud bo'lgan franchayzing kompaniyalarida brendga bo'lgan ishonch darajasi yuqori, operatsion faoliyatda izchillik va samaradorlik darajasi esa barqarorroq bo'lishi aniqlangan.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, brendbuklar zamonaviy marketing boshqaruvi, franchayzing tizimi samaradorligi va brendning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim strategik vosita hisoblanadi. Brendbuk brend identitetining barcha elementlarini yagona tizimda birlashtirib, kompaniya faoliyatining izchil va samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston franchayzing kompaniyalari uchun xalqaro standartlarga mos, zamonaviy va raqamli formatdagi brendbuklarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asoslari mavzuning murakkab va ko'p qirrali xususiyatini hisobga olgan holda zamonaviy ilmiy yondashuvlarga tayanadi. Xususan, franchayzing tizimi, brend identifikatsiyasi, marketing kommunikatsiyalari, iste'molchi xulq-atvori va brend imijini boshqarish bo'yicha nazariy konsepsiyalar hamda amaliy tahliliy usullar o'zaro uyg'unlashtirildi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot maqsadlariga erishish, o'rganilayotgan jarayonlarni obyektiv baholash hamda zamonaviy brendbuklarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar shakllantirish imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini klassik va zamonaviy marketing nazariyalari tashkil etadi. Jumladan, Kotler va Keller tomonidan ishlab chiqilgan marketing boshqaruvi konsepsiyasi, Aakerning brend kapitali modeli, Kapfererning brend identiteti prizmasi, Wheelerning brend identitetini loyihalashga oid yondashuvlari, shuningdek Boyko va Kasperskaya tomonidan taklif etilgan zamonaviy brendbuk strukturasi va raqamli kommunikatsiya konsepsiyalari tahlil qilindi. Mazkur nazariy yondashuvlar brendning tarkibiy elementlari, ularning o'zaro bog'liqligi hamda franchayzing tizimida brend imijini shakllantirishdagi rolini aniqlashga xizmat qildi. Shu asosda brendbuklar franchayzing kompaniyalarining xalqaro bozorlardagi vizual va kommunikatsion barqarorligini ta'minlovchi strategik vosita sifatida baholandi.

Tadqiqotda kompleks yondashuv tamoyili asosida bir nechta tahliliy metodlar qo'llanildi. Xususan, kontent-tahlil, komparativ tahlil, ekspert baholash usuli, SWOT-tahlil, matnli kodlash va vizual dizayn tahlili metodlaridan foydalanildi. Kontent-tahlil yordamida xalqaro kompaniyalarning rasmiy brendbuklari o'rganilib, ularning tuzilmasi, vizual identifikatsiya elementlari, kommunikatsiya uslublari va strategik pozitsiyalash tamoyillari tahlil qilindi. Olingan natijalar O'zbekiston franchayzing kompaniyalarining mavjud marketing materiallari bilan solishtirildi. Mazkur taqqoslash milliy brendlarning vizual identifikatsiyasi, kommunikatsiya strategiyasi va brend qadriyatlarini ifodalash darajasini aniqlash imkonini berdi.

Empirik ma'lumotlarni to'plash maqsadida ekspert baholash usuli ham qo'llanildi. Tadqiqot doirasida marketing, grafik dizayn va brend menejmenti sohasida faoliyat yurituvchi 20 nafar mutaxassis ishtirokida yarim tuzilgan intervyular o'tkazildi. Intervyular natijasida brendbuk yaratish jarayonining amaliy jihatlarini, uni ishlab chiqish va joriy etish bilan bog'liq muhim omillar hamda rivojlanish istiqbollari aniqlandi. Olingan ma'lumotlar matnli kodlash usuli yordamida tizimlashtirildi va asosiy tematik yo'nalishlar bo'yicha guruhlandi. Ushbu yondashuv nazariy xulosalarni amaliy ma'lumotlar bilan boyitish imkonini berdi.

Komparativ tahlil doirasida xalqaro kompaniyalar, jumladan Starbucks, IKEA, KFC, Adidas, Apple, Lush va Nike brendlarning vizual identifikatsiya tizimi hamda brendbuk elementlari O'zbekistonning Choyxona №1, Magic Burger, Siyoma, Breadly, Shohsaroy, Amore, Sardoba Ice Cream, Dobro, Termez Café va Sunberry kabi franchayzing kompaniyalarining marketing materiallari bilan taqqoslab o'rganildi. Tahlil jarayonida maxsus ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida brendning asosiy elementlari, jumladan logotip, ranglar palitrasi, brend qadriyatlarini, kommunikatsiya uslubi, raqamli marketing strategiyasi, tipografik standartlar, brend ovozi (tone of voice), kontent siyosati, maqsadli auditoriya identifikatsiyasi va ijtimoiy mas'uliyat elementlari baholandi [5].

Shuningdek, SWOT-tahlil metodikasi asosida brendbuklarni ishlab chiqish va joriy etish jarayonining kuchli va rivojlantirish imkoniyatiga ega jihatlarini, shuningdek, istiqboldagi imkoniyatlarni tizimli ravishda tahlil qilindi. Mazkur tahlil orqali brendbuklarning xalqaro bozorlarda brend imijini mustahkamlash, marketing kommunikatsiyalarining izchilligini ta'minlash, iste'molchilar bilan samarali aloqalarni rivojlantirish hamda brendning raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati aniqlandi.



Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida ilmiy maqolalar, monografiyalar, xalqaro konferensiya materiallari va amaliy qo'llanmalar tizimli tahlil qilindi. Bundan tashqari, Google Trends, Brandirectory va FranchiseInfo.uz kabi ochiq axborot manbalaridan foydalanilib, franchayzing kompaniyalarining brend tan olinishi, raqamli faolligi va iste'molchilar bilan kommunikatsiya samaradorligi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar o'rganildi [6].

Umuman olganda, mazkur tadqiqot metodologiyasi tizimli, kompleks va integratsiyalashgan yondashuvga asoslangan bo'lib, brendbuklarni ishlab chiqishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganish imkonini berdi. Ushbu metodologik yondashuv asosida franchayzing kompaniyalarining brend boshqaruvi jarayonidagi muhim omillar aniqlanib, milliy brendlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston franchayzing brendlarining xorijiy bozorlardagi pozitsiyasini baholash, ularning marketing kommunikatsiyalari darajasi hamda brend identifikatsiyasi holatini chuqur tahlil qilish natijasida muhim ilmiy va amaliy natijalarga erishildi. Olingan natijalar, bir tomondan, milliy franchayzing subyektlarining amaldagi holatini obyektiv baholash imkonini bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy brendbuklarni ishlab chiqish va joriy etishning strategik ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qildi. Tahlillar davomida franchayzing brendlarining xalqaro bozorlardagi kommunikatsiya strategiyasi, vizual identifikatsiyasi va brend imijini boshqarish darajasida rivojlanish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida 10 ta xalqaro va 10 ta milliy franchayzing brendlarining brendbuk mavjudligi, ularning tuzilmasi, kommunikatsion strategiyalari va vizual identifikatsiya darajasi kontent-tahlil asosida o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, xalqaro franchayzing kompaniyalarining barchasida (100%) to'liq ishlab chiqilgan va tizimlashtirilgan brendbuklar mavjud bo'lib, ular brendning strategik, vizual va kommunikatsion elementlarini kompleks tarzda qamrab oladi. O'zbekiston franchayzing brendlarining taxminan 20 foizida brendbuk elementlari mavjud bo'lib, ular asosan vizual identifikatsiya komponentlari, jumladan logotip, ranglar palitrasi va tipografik standartlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ushbu hujjatlarda brend qadriyatlar, kommunikatsiya strategiyasi, auditoriya bilan o'zaro aloqalar va raqamli marketing yondashuvlari kabi muhim strategik komponentlarni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi. Bu holat milliy brendlar uchun brend boshqaruvining kompleks tizimini shakllantirish istiqbollari mavjudligini ko'rsatadi.

Ekspert intervyulari natijalari ham muhim ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Marketing, dizayn va brend menejmenti sohasida faoliyat yurituvchi 20 nafar mutaxassis ishtirokida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 85 foizi brendbuk franchayzing tizimida muhim strategik vosita ekanligini ta'kidladi. Respondentlarning 60 foizi brendbuk elementlarini tizimli joriy etish vizual identifikatsiya izchilligini ta'minlash, marketing kommunikatsiyalarining samaradorligini oshirish va brendning yaxlitligini mustahkamlashga xizmat qilishini qayd etdi. Shuningdek, respondentlarning 70 foizi zamonaviy brendbuklar franchayzing kompaniyalarining xalqaro bozorlardagi hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish, xorijiy hamkorlar bilan o'zaro aloqalarni samarali tashkil etish va brendning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim omil hisoblanishini e'tirof etdi [7].

Olingan natijalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, zamonaviy brendbuklarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish O'zbekiston franchayzing kompaniyalarining marketing kommunikatsiyalarini rivojlantirish, brend identifikatsiyasini mustahkamlash va iste'molchilar bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yish uchun muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Shu asosda tadqiqot doirasida milliy franchayzing subyektlari uchun moslashtirilgan, modul tamoyiliga asoslangan va raqamli platformalarga integratsiya qilingan brendbuk modelini ishlab chiqish zarurligi asoslab berildi [8].

Tadqiqot natijalari zamonaviy marketing yondashuvlarini milliy franchayzing tizimiga integratsiya qilish muhimligini ham ko'rsatdi. Xususan, brendni xalqaro bozorlarda samarali pozitsiyalash uchun uning vizual identifikatsiyasi, kommunikatsiya strategiyasi, qadriyatlar va missiyasini o'z ichiga olgan kompleks boshqaruv tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Brend zamonaviy iqtisodiyot sharoitida nafaqat mahsulot yoki xizmat belgisi, balki iste'molchi ongida shakllanadigan barqaror tasavvurlar va ishonch omili sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, brendbuk franchayzing kompaniyalari uchun strategik boshqaruv vositasi sifatida alohida ahamiyatga ega.

Muhokama jarayonida xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari ham tahlil qilindi. Xususan, zamonaviy raqamli texnologiyalar va dizayn platformalari, jumladan Canva, Figma va Adobe Express kabi vositalardan foydalanish orqali professional brend identifikatsiya tizimlarini yaratish imkoniyatlari kengayib borayotgani aniqlandi. Bu esa kichik va o'rta biznes subyektlari uchun ham zamonaviy marketing vositalaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi.



Shuningdek, brendbuklarning iste'molchilar bilan kommunikatsiyani rivojlantirishdagi roli ham alohida e'tirof etildi. Brendbuk kompaniyaning qadriyatlarini, missiyasi, rivojlanish strategiyasi va vizual identifikatsiyasini yagona tizimda aks ettirish orqali iste'molchilar bilan barqaror va ishonchli munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa brendga nisbatan ijobiy munosabat va uzoq muddatli sodiqlikni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari brendbuklarni ishlab chiqishda globalizatsiya tamoyilining muhimligini ham tasdiqladi. Xalqaro bozorlarga chiqishda brend identifikatsiyasi global standartlarga mos bo'lishi bilan birga, mahalliy madaniy va ijtimoiy xususiyatlarni ham hisobga olishi zarur. Shu asosda milliy franchayzing kompaniyalari o'z brendbuklarini ishlab chiqishda universal strategik yondashuv bilan bir qatorda, mahalliy bozor xususiyatlariga moslashuvchan elementlarni ham inobatga olishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi [5].

Umuman olganda, tadqiqot natijalari zamonaviy brendbuklarni ishlab chiqish va joriy etish O'zbekiston franchayzing kompaniyalarining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish, marketing kommunikatsiyalarini takomillashtirish va brend boshqaruvi samaradorligini kuchaytirishda muhim strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari va xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatdiki, zamonaviy brendbuklar franchayzing tizimida nafaqat vizual identifikatsiya vositasi, balki brendni strategik boshqarish, marketing kommunikatsiyalarini muvofiqlashtirish va kompaniyaning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Brendbuklar orqali kompaniya o'zining qadriyatlarini, missiyasi, vizual konsepsiyasi va kommunikatsiya strategiyasini yagona tizim asosida ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa brend imijining izchil shakllanishi, iste'molchilar ishonchining ortishi va franchayzing tarmog'ining samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston franchayzing kompaniyalarida brend identifikatsiyasini boshqarish tizimini yanada rivojlantirish va zamonaviy marketing vositalarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Xususan, modul tamoyiliga asoslangan, raqamli platformalarga integratsiya qilingan va strategik kommunikatsiya elementlarini o'z ichiga olgan brendbuklarni ishlab chiqish milliy brendlarning xalqaro bozorlardagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv franchayzing kompaniyalarining marketing faoliyatini tizimlashtirish, brend yaxlitligini ta'minlash va iste'molchilar bilan samarali kommunikatsiyani yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Franchayzing kompaniyalarida brend menejment tizimini rivojlantirish. Har bir franchayzing subyektida brendni strategik boshqarishga mas'ul bo'lgan alohida brend menejment bo'limini tashkil etish va uning faoliyatini marketing strategiyasi bilan integratsiya qilish maqsadga muvofiq.
2. Zamonaviy va kompleks brendbuklarni ishlab chiqish. Brendbuklar faqat vizual elementlarni emas, balki brend qadriyatlarini, kommunikatsiya strategiyasi, raqamli marketing siyosati, auditoriya bilan ishlash tamoyillari va brend pozitsiyalash elementlarini ham o'z ichiga olishi zarur.
3. Raqamli va interaktiv brendbuklardan foydalanishni kengaytirish. Brendbuklarni elektron, interaktiv va yangilanadigan formatda ishlab chiqish franchayzing tarmog'ining barcha ishtirokchilari uchun ulardan samarali foydalanish imkonini yaratadi.
4. Brendbuklarni muntazam ravishda takomillashtirib borish. Bozor sharoitlari, iste'molchi xulq-atvori va marketing texnologiyalaridagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda brendbuklarni davriy ravishda yangilash zarur.
5. Malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish. Dizayn, brend menejmenti va raqamli marketing sohalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun maxsus treninglar, seminarlar va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.
6. Brend identifikatsiyasini xalqaro standartlarga moslashtirish. Milliy franchayzing kompaniyalari brendbuklarini ishlab chiqishda xalqaro marketing standartlari va ilg'or tajribalarni inobatga olishlari zarur.
7. Globalizatsiya tamoyiliga asoslangan brend strategiyasini joriy etish. Brendbuklar global standartlarga mos bo'lishi bilan birga, maqsadli xorijiy bozorlarning madaniy, ijtimoiy va kommunikatsion xususiyatlarini ham hisobga olishi lozim.
8. Davlat tomonidan institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish. Eksportga yo'naltirilgan milliy brendlar uchun brendbuk ishlab chiqish, marketing strategiyasini takomillashtirish va xalqaro bozorlarga chiqish bo'yicha metodik va tashkiliy qo'llab-quvvatlash choralari kengaytirish maqsadga muvofiq.
9. Franchayzing kompaniyalarida yagona vizual kommunikatsiya standartlarini joriy etish. Bu franchayzing tarmog'ining barcha bo'g'inlarida brend yaxlitligini ta'minlash imkonini beradi.
10. Raqamli marketing va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish. Zamonaviy dizayn platformalari va raqamli marketing vositalari asosida brend identifikatsiyasini rivojlantirish franchayzing kompaniyalarining marketing samaradorligini oshiradi.



Umuman olganda, zamonaviy brendbuklarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish O'zbekiston franchayzing kompaniyalarining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish, milliy brendlarning ijobiy imijini shakllantirish va xizmatlar eksportini rivojlantirishda muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu ilmiy tavsiyalarni amaliyotga joriy etish franchayzing tizimining samaradorligini oshirish, milliy brendlarning xalqaro miqyosda tan olinishi va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aaker, D. A. (1996). Building Strong Brands. New York: Free Press. Available at: <https://www.amazon.com/Building-Strong-Brands-David-Aaker/dp/002900151X>
2. Boyko, I., & Pilipenko, T. (2020). Localization of brandbooks for international markets: Theoretical approaches and practical solutions. Marketing and Management of Innovations, 2, 100–110. <https://doi.org/10.21272/mmi.2020.2-08>
3. Chow, S., & Chan, C. (2018). Branding consistency in franchising: The importance of visual identity guidelines. Journal of Brand Management, 25(3), 210–225. <https://doi.org/10.1057/s41262-018-0094-4>
4. Kapferer, J.-N. (2008). The New Strategic Brand Management: Creating and Sustaining Brand Equity Long Term (4th ed.). London: Kogan Page. Available at: <https://koganpage.com/product/the-new-strategic-brand-management-9780749450854>
5. Kasperskaya, A. (2022). Digital brandbooks in global marketing communications. International Journal of Digital Marketing and Advertising, 6(1), 33–47. Available at: <https://www.inderscience.com/info/inarticle.php?artid=100400>
6. Keller, K. L., & Kotler, P. (2016). Marketing Management (15th ed.). Harlow: Pearson Education Limited. Available at: <https://www.pearson.com/en-gb/subject-catalog/p/marketing-management/P200000003560/9781292092621>
7. Kotler, P., & Dubois, B. (2010). Marketing Management. Paris: Publi-Union.
8. Millman, D. (2011). Brand Bible: The Complete Guide to Building, Designing, and Sustaining Brands. Beverly, MA: Rockport Publishers. Available at: <https://www.amazon.com/Brand-Bible-Complete-Designing-Sustaining/dp/1592537260>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
